



THE ROLE OF SECULAR POLITICS IN ENSURING SOCIAL STABILITY IN SOCIETY

Kobiljon K. Khalilov

Independent researcher

Employee of the Ministry of internal affairs of the Republic of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: social progress, atheism, dogmatic, dialectical, ideology of genius, secular politics, secularism, Islam, faith.

Received: 16.09.24

Accepted: 18.09.24

Published: 20.09.24

Abstract: This article explores changes and innovations regarding secular policy in the country's sustainable development and the problem of the role and influence of the religion factor in it. The concepts of secularism and religiosity are very important in the sustainable development of an informed society, which is not a hardened theoretical paradigm – it changes by the presumption of time, era, concrete positive-political situation, undergoes transformation and modernization.

JAMIYATDA IJTIMOYIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SEKULYAR SIYOSATNING O'RNI

Qobiljon K. Xalilov

mustaqil tadqiqotchi

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligi TQD TQKX xodimi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ijtimoiy taraqqiyot, ateizm, dogmatik, dialektik, dahriylik mafkurasi, sekulyar siyosat, sekulyarizm, islom, e'tiqod.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakat barqaror rivojlanishi va unda din omilining o'rni va ta'siri muammosi sekulyar siyosatga oid o'zgarishlar va innovatsiyalar tadqiq etilgan. Axborotlashgan jamiyatning barqaror rivojlanishini Dunyoviylik va diniylik tushunchalari juda muhim bo'lib, ular qotib qolgan nazariy paradigma emas – u zamon, davr, konkret ijtimoiy-siyosiy vaziyat taqozosi bilan o'zgarib boradi, transformatsiya va modernizatsiyaga uchraydi.

РОЛЬ СВЕТСКОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СОЦИАЛЬНОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В ОБЩЕСТВЕ

Кобилжон К. Халилов

Независимый исследователь

Сотрудник МВД Республики Узбекистан

Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: социальный прогресс, атеизм, догматический, диалектический, идеология атеизма, секулярная политика, секуляризм, ислам, Вера.

Аннотация: В данной статье исследуется проблема устойчивого развития страны и роль и влияние религиозного фактора в ней изменения и нововведения, касающиеся секулярной политики. Для устойчивого развития информированного общества очень важны понятия секуляризма и религиозности, которые не являются закаленной теоретической парадигмой – она меняется по мере необходимости времени, эпохи, конкретной социально-политической ситуации, претерпевает трансформацию и модернизацию.

KIRISH

Dinga, diniy e'tiqodga, diniy tashkilotlar faoliyatiga yil sayin katta erkinliklar va huquqlar berilishi jamiyatda "diniy uyg'onish" tendensiyasini shakllantiradi. Bu – xalqimiz tanlagan dunyoviy, demokratik taraqqiyot yo'liga turli tahdidlarni ham yuzaga chiqaradi. Milliy mustaqilligimizning suronli 30-yillari, ikki minginchi yillar boshlarida Toshkent, Buxoro, Andijon va boshqa hududlarda diniy ekstremizm va terrorizmning qora qilmishlari barqaror rivojlanish yo'lida tarixiy saboq bo'ldi. Bu sharoitda chuqur o'ylangan sekulyar siyosat, davlat va din o'rtasida ratsional muvozanatni saqlash, ularning bir-biriga qarama-qarshi munosabati shakllanishiga yo'l qo'ymaslik millatlararo, fuqarolararo va dinlararo barqaror rivojlanishning ishonchli garoviga aylanadi.

Afg'onistonda kuzatilayotgan islom teokratik davlatiga ehtiyojni yuzaga keltiradi. Siyosiy islom, islomizm garchi ahyon-ahyon chekinsa-da, u o'z potensialini yo'qotmaydi. Bu xususiyatni qator siyosiy tahlilchilar e'tirof etishadi[1]. Buning sababi, bir tomondan Eron islom davlati va boshqa islomiy platformadagi davlatlar AQSH boshchiligidagi G'arb davlatlarini "shayton obrazi" ommaviy ongga singdirilgan, aksilg'arb, aksilamerikacha obrazni (imij) jonlantirishga urinishsa, G'arb ommaviy axborot vositalari bunga javoban islom dinini "terrorchi", "buzg'unchi", "xavfli" din degan salbiy obrazini G'arb ommaviy axborot vositalari orqali shakllantirmoqdalar. Ular hatto xolis, G'arb va Sharqning o'zaro dialogi, umuminsoniy muammolar bo'yicha hamkorligiga undovchi islomiy ulamolar urinishlarini ham inkor etmoqdalar. Masalan, Qatar davlatining "Al-

Jazira” sputnik televideniyesi xolis ko’rsatuvlari, taniqli Eron ulamosi Abdul Karim Sarzon va Muhammad Hotamiy “Al-Kitab wa-al Qur’an” (Kitob va Qur’on) kitobida olg’a surilgan islom va demokratiyaning birligi haqidagi misrlik ulamolar Yusuf al Koravi va Rashid al-Gonushning va boshqa taniqli ulamolarning G’arb va Sharq madaniyatlari o’rtasidagi tolerantlikka erishish lozimligi to’g’risidagi purma’no da’vatlarini eshitmaganga soladilar, G’arb olimi Semyuel Xantington olg’a surgan tamaddunlar inqirozi muqarrarligi to’g’risidagi sarobiy uydirma ta’limotdan voz kechmaydilar. Bu sharoitda milliy mustaqil rivojlanish yo’lidan borayotgan Markaziy Osiyo yosh demokratik davlatlari, xususan O’zbekiston ham qaltis va nozik masalada sekulyarizm siyosatini ilmiy asosda olib bora olishi kelgusida ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va tez ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun ishonchli kafolat bo’ladi. Shuningdek, “ijtimoiy barqarorlik” va “barqaror rivojlanish” tushunchalari ushbu holatga erishishning muhim omillari – davlat, jamiyat va din o’rtasida o’zaro hamjihatlik, uyg’unlik va hamkorliksiz mumkin emasligini to’g’risidagi g’oyadir.

ASOSIY QISM

O’zbekistonda olib borilayotgan fuqaroviy siyosat inson huquq va erkinliklarini demokratik asosda ta’minlash va kafolatlash siyosatidir. Sekulyar siyosat ushbu siyosatning ajralmas tarkibiy elementi hisoblanadi. Bir so’z bilan aytgan “Dunyoviylik va plyuralizm tamoyillari amalda amalga oshirilmoqda” [2. – C.45.]. Dinning jamiyat hayotidagi o’rni va ta’siri ziddiyatli jarayon hisoblanadi. Bu ziddiyat sakralizatsiya va sekulyarizatsiya hodisalarning o’zaro qarama-qarshiligida, jamiyat hayotida gegemonlik uchun kurashida namoyon bo’ladi.

O’zbekistonning istiqbolda barqaror taraqqiyoti, Prezident Sh.Mirziyoyev iborasi bilan ifodalaganda, “milliy tiklanishdan milliy taraqqiyot” sari ijtimoiy rivojlanish uchun sakrallashtirish va sekulyarlashtirish hodisalarini siyosiy maqomda ilmiy hal qilish, strategiyaga erishishda taktik siyosatni to’g’ri, xalqchil, global miqyosda din omilining o’zgarishini hisobga olgan holda, dinga oid eski siyosiy qoliplardan voz kechish, yangi siyosiy texnologiyalardan foydalanish lozim bo’ladi. Mana shunday texnologiyalardan biri, bugun axborot kommunikatsiya jarayonlarining kuchayishi, ayrim kuchli davlatlar o’rtasida o’zaro “axborot urushi” ketayotgan sharoitda jamoatchilik bilan aloqa texnologiyalarining, ilmiy tilda PR texnologiya va siyosiy menejment texnologiyalarining ahamiyati oshib boradi.

Falsafa qomusiy lug’at”da: “Sekulyarizatsiya – Uyg’onish davrida Yevropada keng tarqalgan qarash bo’lib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, inson ongi va faoliyatida dunyoviylik ta’sirining kuchayib borish jarayonini ifoda etadi”[8. – B. 360.], deb ta’riflanadi. Bizningcha, sekulyarizatsiya, o’tmishning muayyan bosqichida yuzaga kelgan jarayon sifatida tavsiflanyapti bunda uning makon va zamondani xususiyati e’tiborga olinmagan.

Sakralizatsiya – ilohiylashtirish, hatto dunyoviy hodisalarga ham diniy ma’no va mazmun berish demakdir. AQSH harbiy kuchlarining 2021-yil avgustidan qo‘shni Afg‘onistondan chiqib ketishi afg‘on zaminida diniy radikal kuchlarning faollashuviga, “islom amirligi”ni barpo etishga harakat qiluvchi “Tolibon” harakatiga kuch bag‘ishladi. BMT va xalqaro hamjamiyat tomonidan terrorchi tashkilot va harakatlar ro‘yxatiga kiritilgan “Tolibon” harakatini 2021-yildan Afg‘onistonda hokimiyat tepasiga kelishi Markaziy Osiyo siyosiy arxitekturasiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Dunyoviy demokratik taraqqiyot yo‘lidan sobitqadamlik bilan ketayotgan yosh mustaqil davlatlar hududida “beshinchi kolonna”ni barpo etish va jonlantirishga urinishlar kuzatilmoqda, “Turkiston islom harakati”, “Islom jihodi ittihodi”, “Al-Qoida” va h.k. xalqaro terroristik tashkilotlar aholisining ko‘pchiligini musulmonlar tashkil qiluvchi Markaziy Osiyo yosh mustaqil davlatlariga o‘z g‘oyaviy ta’sirini kuchaytirishga oshiqmoqdalar[3].

Bizning nazarimizda mamlakatimizda din va davlat munosbatlarining bir maromda, barqaror bo‘lishini ta’minlash uchun yagona ishonchli yo‘l, vosita va omil – konstitutsionallik va qonunchilikni yanada mustahkamlash va takomillashtirish zarur. 2021-yil iyul oyida parlamentimiz tomonidan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi konstitutsion qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bu yo‘nalishdagi jiddiy qadamlardan biri bo‘ldi. Zero, ijtimoiy barqarorlik osmondan tushadigan ne’mat emas, uning uchun davlatning dinga oid siyosati, demak, sekulyar siyosati doimo takomillashtirilishi kerak bo‘ladi. Buni jahon tajribasi (Misr, Turkiya, Hindiston, Indoneziya) yaqqol ko‘rsatib, tasdiqlab turibdi. Seklyarizm siyosatini takomillashtirish borasida jahon tajribasiga ushbu tadqiqotda alohida o‘rin ajratamiz.

AQSH aksilterror kuchlarining chiqib ketishi, AQSH va Eron munosabatlarining tobora yomonlashuvi Markaziy Osiyodagi, xususan O‘zbekistonda hukm surayotgan osoyishtalik va barqarorlikka ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Shu bois O‘zbekistonda sekulyar siyosatga ushbu kontekstda qarash ma’qul. Markaziy Osiyoda yetakchi davlatlar Xitoy, Rossiya, AQSH, Turkiya, Eron davlatlarining geosiyosiy manfaatlarining o‘zaro to‘qnashuvi mintaqada kuzatilayotgan o‘zaro integratsiyaga soya solishi aniq. Biz muammoning geosiyosiy jihatlariga ortiqcha e’tibor qaratmay ta’kidlashimiz zarur: islom dunyosining tarkibiy qismi, islom madaniyatining markazlaridan biri deb e’tirof etilayotgan O‘zbekiston (ISESKO, 2007-y.) sekulyar siyosatini istiqbolda izchil olib borishi uchun bir tomondan islom dunyosi bilan do‘stona munosabatlarini, ikkinchi tomondan esa xalqimiz tanlagan dunyoviy demokratik taraqqiyot yo‘lini izchil davom ettirishi, istiqbolda O‘zbekistonni dunyoning taraqqiy qilgan davlatlari qatoridan munosib o‘rin egallashini ta’minlashi darkor. Buning uchun barcha yetarli omillar mavjud, O‘zbekiston aholisi mintaqa aholisining deyarli yarmini tashkil etadi. Markaziy Osiyoda, xususan O‘zbekistonda qimmatbaho va rangli metallardan uran va uglevodorod resurslarining katta zaxiralari joylashgan. Qo‘shni Qozog‘iston neft, Turkmaniston gaz zaxiralari bo‘yicha dunyoning

yetakchi davlatlari ro'yxatida turadi. O'zbekiston esa oltin zaxiralari bo'yicha dunyoda to'rtinchi, mis zaxiralari bo'yicha esa o'ninchi o'rinni, uran zaxiralari bo'yicha yettinchi, tabiiy gaz zaxiralari bo'yicha dunyoda o'n to'rtinchi, paxta tolasi eksporti bo'yicha ikkinchi, volfram, kaliyli tuz, fosforit, kaolin kabi kimyoviy boyliklar, qorako'l terisi, pillachilik bo'yicha ham yetakchi o'rinlarni egallaydi [4.– B.240]. Biroq bunday nodir yer osti boyliklaridan mamlakatning yuksalishi yo'lida fodalanish davlat boshqaruv siyosatini nafaqat modernizatsiya qilishni, balki tub transformatsiyasini, islohotini taqozo qiladi. Aniqroq va ochiqroq ifodalansa – ushbu siyosiy transformatsiya quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilishi lozim:

mamlakat siyosiy elitasini yangi talablar asosida rekrutatsiyasini amalga oshirish;

davlat xizmati haqida qonun qabul qilish, davlat xizmatchisi daromadlarining deklaratsiyasini yo'lga qo'yish orqali oddiy fuqarolar hisobiga emas, balki noqonuniy daromadlar hisobiga davlat byudjetini rag'batlantirish;

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni iqtisodiy tadbirlardan oldin qo'yish, ya'ni “aravani otdan oldin qo'yish emas, balki otni aravaga qo'shish kerak”. Har qanday iqtisod, jumladan bozor iqtisodi mustahkam ma'naviy poydevorga asoslanishi lozim. Bu orqali davlat, hokimiyat faoliyatiga ishonch (trust, doveriye) oshadi, ijtimoiy yuksalish uchun sharoit yuzaga keladi;

ma'naviyatning tarkibiy qismi – dinga e'tibor kuchayishi, dinning ma'rifiy-tarbiyaviy salohiyatidan oqilona foydalanish, kerak bo'lsa musulmon jamiyatlari uchun an'anaviy bo'lgan shariat qonunlaridan, islom huquqshunosligi an'alaridan ratsional huquqshunoslik bilan o'zaro uyg'unlikda foydalanishni yo'lga qo'yish kerak.

Halollik, adolatpeshalik, iymon bilan insofni uyg'unlashtirish, ko'pchilik, jamoa manfaatlari ustuvorligi asosiy shior darajasiga yetishi kerak. Bir so'z bilan ifodalaganda “Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal” (Avesto) amaliy tamoyili, hazrat Balogardon (Bahouddin Naqshband) g'oyasi – “dil bayor-u, dast ba-kor!” algoritmi dinga oid sekulyar siyosatda ustuvor bo'lishi kerak va h.k.

Ushbu yo'nalishlar O'zbekiston milliy xavfsizligi, barqaror rivojlanishning asosiy kafolatlari ekanligiga shubha yo'q. Zero, O'zbekiston yuqorida bir necha karra ta'kidlanganidek, dunyoning yetakchi, yirik davlatlarining manfaatlari kesishgan ijtimoiy makon. Bu sharoitda tashqi siyosatda ham strategik hamkorlik bilan bir qatorda, taktik va tezkor (operativ) maqsadli siyosiy texnologiyalar yaratish va ularni amaliyotga, ijtimoiy reallikka malakali qo'llay bilish mamlakat ijtimoiy yuksalishi uchun asosiy talablardan biridir.

Ana shu kontekstda taniqli o'zbek olimi R.Samarov ta'kidlashicha, “bugungi kunda barqarorlikka qarshi qaratilgan jamiyatdagi salbiy unsurlarning mavjudligini inobatga olsak, ushbu yo'nalishda tadqiq etiladigan mavzular talaygina. Misol tariqasida “Axborot-psixologik hujum”, “G'oyaviy ta'sir ko'rsatish”, “Iqtisodiy va madaniy ekspansiya” kabilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin”[5.– B200].

Sekulyar siyosat o‘tmishdagi kabi dogmatik, bir yoqlama bo‘lib qolmasligi uchun dinga, dindorlarga yangicha, zamonaviy munosabatni shakllantirish lozim. Zero, dindor kishi ham O‘zbekiston fuqarosi. Sekulyar siyosatda tolerantlik prinsipi yanada kengroq amal qilishi lozim. Bu jihat yangi tahrirdagi qonunda o‘z aksini qisman topdi – bundan buyon xotin-qizlarimiz erkin-emin ro‘mol o‘rashlari, yevropacha emas, balki an’anaviy o‘zbek liboslarida jamoat joylarida yurishlari mumkin. Biroq sekulyar siyosatdan dinning siyosiylashuvi, ya’ni dinning davlat dunyoviy siyosatiga aralashuvi, siyosiy partiyalar va siyosiy harakatlar maqomini egallashiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Bunday holatda jamiyatda dunyoviylik va diniylik o‘rtasidagi ijtimoiy muvozanat buziladi – teokratik davlatchilik tarafdorlari (90-yillardagi kabi) mavqei mustahkamlanadi. Natijada ijtimoiy barqarorlikka, baraqaror rivojlanishga xavflar yuzaga keladi. Ushbu kontekstda yetakchi sharqshunos, islomshunos olimlarimizdan, Vazirlar mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita mutasaddisi Shoazim Minavvarovning O‘zbekistonda diniy ta’lim tizimi haqidagi masalaga oid mulohaza va tavsiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Olim fikriga ko‘ra, “Diniy bag‘rikenglik ruhini tarbiyalash va mustahkamlashdagi yutuqlar, ko‘p jihatdan, diniy ta’lim tizimining rivojlanish darajasiga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasidagi diniy-ma’naviy ta’limni va mazmunini rivojlanishi misolida bunga ishonch hosil qilish mumkin”[6. – B. 143.]. Ushbu mutaxassis olim va mutasaddi rahbar O‘zbekiston sekulyar siyosatida yo‘l qo‘yilgan xatolar va yutuqlar xususida mukammal siyosiy tahlilni amalga oshiradi: “O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki yillarida haqiqiy ehtiyojlarni hisobga olmay turib, juda ko‘p masjid va madrasalar ochildiki, ularda din asoslarini ko‘pincha chuqur diniy bilimlar va umumiy salohiyatga ega bo‘lmagan “imomlar”, shuningdek, duch kelgan xorijlik “missionerlar” o‘rgata boshladilar. Darslar jarayonida ular, asosan, arab davlatlarida, shuningdek, Turkiya va Eronda nashr etilgan darsliklardan foydalandilar. Natijada, 1990-yillarning o‘rtalariga kelib mamlakatimizda, garchi kamsonli bo‘lsa-da, lekin murosasizlik mavqeida turuvchi va islom asoslarini fundamentalistik nuqtayi nazardan talqin qiluvchi yoshlar guruhlarini paydo bo‘ldi. Ular “islom davlati” tuzish, o‘rta asrlarga qaytish, barcha boshqa dinlarga e’tiqod qiluvchilarga qarshi “jihod” e’lon qilish shiorlarini ilgari sura boshladilar” [7. – B. 148.].

XULOSA

Xullsa, dinga oid boshqa rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib o‘z vaqtida bu xavfning odi olindi – turli “missionerlar” mamlakatimizdan badarg‘a qilindi. Ushbu mutaxassis olimning o‘rinli va to‘g‘ri ta’kidlashicha, dunyoviy va diniy ta’lim o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi, ayniqsa, diniy ta’limning diniy-ma’naviy va milliy xususiyatlarini hisobga olmay, uni faqat o‘rta asrlar aqidalari asosida rivojlantirish siyosiy islom, natijada diniy aqidaparastlik, diniy ekstremizm va fundamentalizm uchun qulay sharoit yaratishi muqarrar. Afsuski, “bugungi kunda turli toifalar tomonidan diniylik va dunyoviylik nisbati buzib talqin qilinib, islom - din xam

siyosatni o'z ichiga qamrab olgan ilohiy ta'limot (arab, "al-islam din va davla"), ekani haqidagi da'volar ko'p yangramoqda".

Bugungi kunda Toshkent islom universitetining Xalqaro Islom Akademiyasiga aylantirilishi, Toshkentdagi Imom al-Buxoriy nomidagi islom ma'hadi, O'zbekiston musulmonlari idorasi huzuridagi o'ndan ortiq diniy ta'lim madrasalarida haqiqiy ma'rifiy islom aqidalari asosida ta'lim berilishining ta'minlanishi turli diniy niqobdagi buzg'unchi yot unsurlarning jamiyat barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sirini kamaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kepel G. Jihad: The Trial of Political islam. – Cambr, Harvard University Press, 2002.
2. Г.В. Демидов. Г.В. Светскость и религия: трансформация понятия «религиозное образование» в современном мире. Вестник РГГУ. серия: философия. социология. искусствovedени. № 4. 2016. – С.45.
3. АҚШ Конгрессида Жейноб Зеннинг "The Hetifage Fenndation" жамғармасидаги ахбороти. Сайт: Visit uz, 13.07.2013. UPL.: http://www.vestiuz/index.jhj?option=com_content@view=articlesid=37890:2013-07.03-17-312cftid=19politics2itemid=39
4. Узбекское агентство по печати и информации. URL. Httр://www.apt.uz/ru/top/Uzbekistan/.; Алимов Б. Медиа маконда миллий манфатлар. Ўқув кўлланма. – Т.: "Таълим медиа", 2019. – 240 б.
5. Самаров Р. Хавфсизликнинг методологик асослари. – Т.: "Akademiyа", 2018. – 200 б.
6. Минавваров Ш. Ўзбекистонда диний таълим тизими ҳақидаги масалага оид (тажриба, муаммолар, тавсиялар) // Тўплам: Ислom ва дунёвий маърифий давлат. З.И.мунавваров ва В.Шнейдер-Детерснинг умумий таҳрир остида. – Т., 2003. – Б. 143.
7. Ислom маърифати ва ҳозирги замон. Масъул муҳаррир Л. Абдуллаев. - Тошкент: Тошкент ислom университети, 2017. – Б.22. (160)